

**GILAMCHILIK SO‘Z-TERMINLARINING PAYDO BO‘LISHI VA
ULARNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI**

Urganch davlat universiteti talabasi

Qodirova Mashhura

Annotatsiya: Maqolada kasb – hunar so‘z – terminlarining paydo bo‘lishi, ularning leksik, semantik, grammatik xususiyatlari guruhlab tahlil qilindi. Terminlarning ichki va tashqi manba asosida paydo bo‘lishi va tilning boyishiga xizmat qilishi misollar yordamida ko‘rsatib berildi.

Kalit so‘zlar: ichki manba, tashqi manba, analogiya, sabov, o‘darg‘i, chitish.

Terminologik leksika mavjud so‘zlarni umumxalq tilidagi ma‘nolaridan tashqari, o‘zgacha ma‘noda qo‘llash, ularga maxsus ma‘no berish, umumxalq tilining so‘z yasash vositalari yordamida yangi terminlar yasash asosida maydonga keladi. Kasb-hunar leksikasi ikki manba asosida maydonga keladi:

1. Ichki manba;
2. Tashqi manba.

Kasb-hunar leksikasini boyitish, yangi so‘z-terminlar hosil qilishda xizmat qiluvchi, tilning butun leksik va grammatik vositalari **ichki manbalar** hisoblanadi. Ichki manbalar asosida so‘z-terminlarning paydo bo‘lishi leksik-semantik va grammatik usullar bilan so‘z yasashga asoslanadi.¹

Tashqi manba-boshqa tillardan o‘zlashgan terminlar. Shunga e‘tibor berish kerakki, maxsus terminlar va umumiste‘moldagi leksika o‘rtasidagi munosabat termin bo‘lmagan so‘zlardan maxsus tushunchalarni nomlashda foydalanish bilangina cheklanmaydi. Aksincha, terminlarning maxsus ma‘nolarini yo‘qotib, ko‘chgan ma‘noda umumxalq tilining aktiv sostavida qo‘llanish holatlari ham uchraydi. Ko‘p hollarda biror sotsial gruppada leksikasida professional termin sifatida qo‘llangan so‘z umumxalq tili leksikasiga o‘zining asl ma‘nosidan tashqari, yangicha ma‘no kasb etgan holda qaytib kiradi va umumiste‘moldagi so‘zlar qatori qo‘llanila boshlaydi. Masalan, fransuzcha *astiquer* termini ko‘nchilarning professional termini bo‘lib, “terini silliqlash” ma‘nosida ishlatilgan. Hozirgi tilda

¹ Tursunova T., Chevarchilik so‘z terminlarining paydo bo‘lish manbalari. Toshkent, 1970.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

uning ma'nosi kengayib, umuman, "tozalamoq", "tozalikka rioya qilmoq" ma'nolarida umumiste'molda qo'llaniladi. Shunga o'xshash, o'zbek tilidagi *dazmollash* (tojikcha darz+molidan) so'zi – kulolchilik, mashinachilik, kashtachilik kabi kasb tarmoqlari leksikasiga oid termin. So'nggi vaqtlarda dazmollash umumxalq tilida matolarni silliqlash ma'nosida ham qo'llanila boshlandi.² So'z ma'nolaridagi bunday o'zgarishlar ko'pincha metafora va metanimiya usullarida ma'no ko'chishi, ma'no kengayishi va torayishi – maxsus terminlarning o'z ma'nosini yo'qotib, umumiyroq tushunchani ifodalashga xizmat qila boshlashi va aksincha, so'z ma'nolarining maxsuslashuvi, kankretlashuviga intilishga asoslanadi. Termin va termin bo'lmagan so'zlar o'rtasida doimo o'zaro almashinuv hodisasi davom etadi. Chunki umumxalq leksikasi bilan ma'lum doirada qo'llaniladigan maxsus leksik qatlam o'rtasida buzib bo'lmaydigan chegara yo'q. Shu sababli, bir qator so'zlar tor doirada chegaradan chiqib, keng masshtabda hech qanday to'siqsiz qo'llana oladi. O'z navbatida maxsus terminlar ham so'z ma'nolarini maxsuslashtirish, ham tildagi tub elementlar negizida yangi terminlar yasash bilan o'z sostavini to'ldira boradi.

Professional leksikada, jumladan, gilamchilik leksikasida, so'z – termin hosil qilishning o'ziga xos prinsiplari mavjud. Bu sohada, ayniqsa, nusxa va naqshlarni nomlashda gilam to'quvchilar fantaziyasi birinchi o'rinda turadi. Bezaklarida yo'lbars va tuya izlari, olma guli, uzum zangi, tuya bo'yni, qalqon, o'simliklar ifodalangan, ayniqsa, hayvon shoxi tasviri keng tarqalgan.³ Shunga ko'ra gilamchilik leksikasida analogiya(tasviriy o'xshatish) prinsipi asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, **inson tana azolariga o'xshatib nomlash** (ko'z, qosh, tirnoq), **qushlar, hayvonlar va ularning a'zolariga o'xshatib nomlash** (tovuq ko'zi, kuchuk izi, qo'chqor shoxi) shular jumlasidandir. Bundan tashqari, gilamchilik leksikasida nomlasjning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

Materialiga ko'ra nomlash. Bu prinsipga ko'ra buyumlarga sarf etilgan xom mahsulotlardan birining nomi qo'shilgan holda nom beriladi: paxta, olcha, jun olcha, ip sholcha, pat gilam kabi.

Ishlab chiqarish texnikasiga ko'ra nomlash. Terma gilam – termaning naqshini tushirishda o'rishlar sanab teriladi. Qoqma gilam – o'rishga arqoq o'tkazilib, qilich bilan qoqib – qoqib arqoq mustahkamlanib ketiladi.

² Tursunova T., O'zbek tili amaliy san'at leksikasi. Toshkent, 1978.

³ Jabborov I., O'zbek xalqi etnografiyasi, 1994.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Vazifasiga ko‘ra nomlash. Bunda to‘quv dastgohi detallari, ishlab chiqarish qurollari o‘zining bajaradigan vazifasiga qarab nom oladi. Sabov – paxta yoki jun savashda foydalaniladigan, maxsus formada va o‘lchovda yo‘nib tayyorlangan tayoqcha. Savag‘ich – savaydigan moslama. O‘darg‘i – gilam to‘qishda ostki va ustki urishlarni almashtirib, ag‘darib turadigan asbob. Ko‘targi, o‘rmak oyoq, do‘kon kaltaklar ham shular jumlasidandir.

Ishlab chiqarish protsessiga ko‘ra nomlash. Kasb – hunar leksikasida ish jarayoniga ko‘ra berilgan nomlar leksikaning katta bir qismini tashkil etadi. Bunda harakatning qanday qurol vositasida yuzaga kelishi, harakat hosilasi asosga olinadi: sabash\\savash, jun tutish, iyirish, chiyratish, kalabalash\\kalavalash, past chalish, chitish(chitim, ya’ni toladan tugun tugish) kabi.

Etnik guruhlar va joyga nisbat berib nomlash. Bu prinsipda buyum turlari va naqshlarga etnik guruhlar – xalq, urug‘ va joyga asoslanib nom beriladi: qozoqi gilam, arabi gilam, turkman gilam, qizil oyoq gilam, qashqar gilam, moskov gilam, xiva gilam, nayman nusxa kabi.

Kasb – hunarga oid so‘z terminlarning leksik – semantik tabiatini tahlil qilish shunday xulosaga olib keladiki, nomlar predmetning ishlatilishi, belgilari, materiali, ishlab chiqarish usullari, bajaradigan vazifasi, buyumning birinchi ishlangan o‘rni, ishlab chiqaruvchi xalq yoki urug‘lar, ishlab chiqaruvchi kishilar nomlari, naqshlarning o‘xshashligiga ko‘ra qiyoslash, tasviriy o‘xshatish(analogiya), xayoliy o‘xshatish(simvolika) asosida maydonga keladi. Bu prinsiplar negizida esa, mohiyat e’tibori bilan, semantik usul bilan so‘z yasashning turli ko‘rinishlari yotadi. Zotan, kasb – hunar leksikasida mavjud so‘zlarni o‘z ma’nosidan tashqarida o‘zgacha ma’noda qo‘llash, maxsus ma’no berish, qayta nomlash muhim o‘rin tutadi. Maxsus terminologiya davr talabiga ko‘ra paydo bo‘lgan yangi – yangi buyumlar va ularning turlariga qo‘yilgan yangicha nomlar hisobiga ham boyiydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunova T., Chevarchilik so‘z terminlarining paydo bo‘lish manbalari. Toshkent, 1970.
2. Tursunova T., O‘zbek tili amaliy san’at leksikasi. Toshkent, 1978.
3. Jabborov I., O‘zbek xalqi etnografiyasi, 1994.